SHE’RIYATDA MIFOMORFIK RAMZLAR

Usmanova Xumora Ahmadjonovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.14604857

ANNOTATSIYA

Maqolada mifomorfik ramzlar va ularning she’riyatda qo‘llanilishi yoritib berilgan. Shuningdek, she’riy matnlarda ramzlarning variantsiyalarda obrazlantirilgan holatlari keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

mif, mifologik, mifomorfik, ramz, obraz, lingvopoetika, obyekt, poetik.

АННОТАЦИЯ

В статье описываются мифоморфные символы и их использование в поэзии. Также известны случаи, когда в поэтических текстах символы представлены в вариантах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

миф, мифологический, мифоморфный, символ, образ, лингвопоэтика, предмет, поэтический.

ABSTRACT

The article describes mythomorphic symbols and their use in poetry. Also, there are cases where symbols are represented in variants in poetic texts.

KEY WORDS

myth, mythological, mythomorphic, symbol, image, linguopoetics, object, poetic.

Miflar (asotirlar) butun dunyo xalqlarining hayotida va madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qadimiy janrdir. Ularda har bir millatning yashash tarzi, dunyoqarashi, e’tiqodi, borliq haqidagi tasavvurlari kabi milliy-etnik xususiyatlar o‘z aksini topgan. Mifologiyaning negizi insoniyat taraqqiyotining ilk davrlariga borib taqaladi va uni olamni idrok etishning asosiy vositasi, ibtidoiy madaniyatning negizi, deyish mumkin.

Mifologik obrazlar kishilar idrokida turli narsa-hodisalarning ramzi sifatida shakllangan. Rossiyalik faylasuf K.G.Isupov qayd etganidek: Mifologizmlar, bu – mifologik stereotipda modellashtirilgan badiiy voqelikning syujet-kompozitsion qurilishi bo‘lib, ularga folklorizmlar va istorizmlardan farqli o‘laroq, afsonalardagi **ramziy** vaziyatlar, motivlar va qahramonlar sifatida qaraladi. [1, 8b]

O‘zbek lingvopoetikasida Alpomish, Farhod, Tohir, Majnun, Oybarchin, Shirin, Layli, pari, dev, ajdarho, iblis, shayton, yalmog‘iz, farishta kabi **mifomorfik** timsollar xalq og‘zaki ijodidan badiiy adabiyotga ko‘chib, ramziy ma’nosi bilan poetik ma’no tashuvchi vositaga aylangan obrazlardir. “Alpomish, Farhod, Tohir obrazlari butun bir fikrni ifodalovchi ramzlardir. Chunki bu obrazlarda alohida holatlar va ustunliklar boshqa obrazlarga nisbatan, ancha chuqur o‘rnashgan. Shuning uchun ham davrlar davomida qahramonlik, fidokorlik, sevgi tushunchalari shu obrazlarning atrofida mujassamlashtirilgan. Natijada, boshqa obrazlarga nisbatan katta ma’noni ifodalagan tushunchalar ramz darajasiga ko‘tarilgan” [2, 93b].

Qadimda “Alp” deganda yirik gavdali, baquvvat, bahodir erkaklar nazarda tutilgan. O‘zbek xalq dostonlarida g‘ayritabiiy kuch-qudrati, mardligi, jasorati va aql-farosati bilan ajralib turadigan qahramon sifatida talqin qilingan. Bugungi kunda Alpomish pahlavon kelbatli, jismonan baquvvat va sog‘lom erkaklarga nisbatan qo‘llaniladi. “Xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor azamat o‘g‘lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz” *(I.A.Karimov).*

She’riyatda ham Alpomish va Oybarchin mifonimlarining “Alpomish” dostoni obrazlari asosidagi poetik talqinini ko‘ramiz.

Do‘mbiraning qo‘sh tori yo Oybarchin kokillari – Qirlaringning kiftlaridan tushgan temir yo‘llari. Baland-baland tog‘laringdan g‘urur olmish, qalb olmish, Har qizing bir Oybarchindir, har o‘g‘ling – bir Alpomish (S.Sayyid. “Suv keltirgan elda aziz”)

Alpomish mifonim sifatida xalq tasavvurida ramziy timsolga aylangan. *Baquvvat, pahlavon, mard* semantik guruhi vositasida *yigit* so‘zi bilan bog‘lanadi. Oybarchin esa *go‘zal, vafodor, mard, jasoratli* semalari bilan o‘zbek qizlarining tipik obraziga aylangan va timsol darajasiga ko‘tarilgan. Shuningdek, A.Navoiy dostonlarining qahramonlari Layli va Majnun, Farhod va Shirin obrazlari ham asarlarning syujetlari asosida vafodor va oshiq yigit hamda sohibjamol va sadoqatli ma’shuqa timsolida ramziylik kasb etgan.

Tog‘dek oshiqni kuydurdung bu Shirinlik bila,
Mun din ortuqrok meni bir yo‘li sen Farhod qil. (Lutfiy, “Ey sihi qad”).

Ammo ba’zan ularni insondan boshqa tushunchalarga nisbatan qo‘llash holatlari ham uchraydi:

Saharda qon tupursam, mayli.
Men — Majnunman, she’rim, sen –Layli! (Usmon Nosir, “She’rim”)

Shoir she’rga oshiqligini Majnunning Layliga muhabbati bilan qiyoslaydi. Majnun kabi fido bo‘lishga tayyor ekanligiga ishora qiladi. Obyekt o‘zgargan bo‘lsa-da, *oshiqlik, vafodorlik, fidoyilik* semalari saqlanib qoladi.

She’riyatda *pari, sanam, farishta* mifonimlari go‘zal, o‘ta sohibjamol qiz ramzini ifodalab kelishi kuzatiladi:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozuklugudin suv bila yutsa bo‘lur (Atoyi, “Ul sanamkim”).
Bir qarab qo‘ysang nadir
Bizga ham goho, sanam.
Menga sensiz beqadr
Dunyo, sanam, dunyo, sanam (M. Yusuf, “Sanam”).

Yaqin Sharq dunyosida katta ilonlar yoki ajdaho yovuzlik ramzi hisoblangan. Masalan, Misr xudosi Apepi zulmat dunyosining buyuk iloni sifatida tasavvur qilingan. Ammo yunonlar va rimliklar Yaqin Sharq afsonalaridagi ilon obrazini yovuz kuch sifatida qabul qilsalar ham ajdarga yer tubida yashovchi o‘tkir ko‘zli, foyda keltiruvchi maxluq sifatida qarashgan. Yevropada esa ajdarlar ko‘proq yomonlik qiluvchi yovuz kuch sifatida tasavvur qilingan. Xususan, xristian dunyosida ajdarlar gunoh va butparastlik ramzi hisoblanadi. Shu sababli ko‘pincha rohiblar yoki jafokashlar oyog‘i ostida yastanib yotgan ajdar obrazi tasviri beriladi. Zamonlar o‘tgan sari ajdar mifologizmining mohiyati o‘zgarib kelgan. Masalan, ajdar timsoli Angliyada Normanlar istilosidan qirollikning ramzi deb belgilangan. G‘arb va Sharq afsonalarida ajdar mifologizmining ko‘rinishida o‘xshashlik va farqli tomonlar borligini kuzatish mumkin. “Angliyada ajdar, asosan, xazina qo‘riqchisi sifatidagi talqini keng tarqalgan bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi Qadimgi Rim va yunon afsonalaridagi muqaddas joylar va qo‘rg‘onlarni qo‘riqlovchi ilonlar obrazi bilan bog‘liqligi taxmin qilinadi. Uels folklorida ajdar mifologizmi rangiga ko‘ra farqlanadi. Unda qizil va oq ajdar obrazlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Qizil ajdarni o‘z milliy g‘ururi timsolida qabul qilgan uelsliklar uni mamlakat bayrog‘ida ham aks ettirishgan” [3, 3b].

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ajdar yovuzlik timsoli sifatida talqin etiladi, ilon bilan bir xil maqomga ega. Xitoyda ilon-ajdar – hayotning boshlanishi, muchallardan biri, shomonlik maqomini belgilovchi qiyofa. Xitoy, Yaponiya, Koreya va Sharqiy Osiyo ibodatxonalarida hozir ham ilon raqslari o‘ynaladi. Ajdar qadimgi turklar shomonchiligida bo‘ron, quyun timsoli. O‘zbek xalq ertaklarida – yovuz, yirtqich ruh timsoli. Hind, grek, arman xalqlarining afsona va miflarida suv, hosildorlik, sel, daryo, dengiz va boshqa tabiat stixiyalari xudosi. Nasroniylikda ajdar – yovuz, qora kuch, shayton timsoli. Olim M.Jo‘rayev mazkur mifologik mavjudotning chizgilari va tasnifiga doir quyidagi aniq ma’lumotni keltiradi:

“…ilon to‘qqiz yoshgacha ilon deb aytiladi. To‘qqizdan to‘qson yoshgacha athi deyiladi. To‘qson to‘qqiz yoshdan to‘qqiz yuz yoshgacha ajdarho, to‘qqiz yuzdan to‘qqiz ming yoshgacha yuho deb ataladi” [4].

Badiiy asarda biror-bir obraz stilizatsiya (tor ma’noda) va variatsiyalashgan holatda namoyon bo‘ladi. “Variatsiyada muallif birovning materialidan foydalanib, manbaning mazmuniga va g‘oyaviy-mavzuiy sohasiga ataylab murojaat qiladi. Masalan, ajdar tor ma’noda bir yoki bir necha boshli, qanotli, og‘zidan olov sochadigan mifologik obrazni ifodalaydi. Uning poetik variatsiyalari esa keng. Jumladan, u she’riyatda urush, nafs, zararli tuzum, bosqinchi, qonxo‘r va shafqatsiz kishi, atom bombasi, samolyot, internet, daryo, dunyo, zavod va korxonalar, ishq, ko‘z, zulf kabi qator variatsiyalarda obrazlantirib kelinadi [5, 13b].

Internet degan ajdar, Simidan oqar zahar, “Dod” demay ro‘zi mahshar, Bolaga kitob bering! (X.Karimov, “Bolaga kitob bering”), - she’rida esa ajdar timsoli internetni ifodalab kelgan. Bunda ajdar va internetni o‘z komiga tortish, zaharlash (tarbiyasini buzish) tushunchalari birlashtiradi.

G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan” she’rida esa **ajdar halqumli** birikmasi orqali urush motivi berilarkan, *o‘t purkamoq, olov, qon, o‘lim, jarohat, yonish* kabi umumiy semalar asos qilib olinadi.

*Bu yerda muzlagan **Ajdar halqumli** Vahshat to‘plarining Qahqahasi yo‘q. Bu yerda — odamzod shaklida yurgan La’nati **dev**larning manfur, yuqumli maraz namoyishi topolmas huquq*. Shuningdek, *dev* mifonimiga yo‘naltirilgan manfur, maraz sifatlari shoirning subyektiv munosabatini ifoda etadi. *Odamzod shaklida yurgan* birikmasi orqali bu “dev” – fashistlar ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Alisher Navoiy qalamiga mansub “Ey qading sarvi ravon...” deb boshlanuvchi g‘azalning quyidagi misralarida ishq maxzan (xazina)ga, g‘am esa ajdahoga o‘xshatilgan:

Ishq naqdi dog‘i g‘am kirmish Navoiy, ko‘ngliga,
Vahki, bir dam ajdahodin xoliy ermas maxzanim[6, 326b].

Hazrat Navoiy ko‘ngilni xazinaga qiyoslab, unga kirgan g‘amni ajdahoga o‘xshatadi. Bunda xazinalarni ajdarholar qo‘riqlashi haqidagi mifologik tushuncha tafakkurda faollashib, metaforik ifodaning zavqbaxsh xususiyati oydinlashadi.

Statitistik tahlil natijalariga ko‘ra she’riyatda qo‘llanilgan mifomorfik ramzlar yetakchi o‘rinda turadi. Mifomorfik ramzlar badiiylik va ta’sirchanlikni oshirish bilan birgalikda, she’riy matnning obrazliligiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қаранг:Ўраева Д., Назарова Г. Инглиз ва ўзбек адабиётларидаги мифоним ва мифологизмларнинг қиёсий таҳлили.Филология масалалари. 2021/1. – 8б..
2. Ражабов Т. Badiiy ko‘chim vositasida ramzlarning yuzaga kelishi va ularning badiiy xususiyatlari. Тил ва адабиёт таълими эл.журнали. 2022-yil 8-son.www.tilvaadabiyot.uz 93
3. Ўраева Д., Назарова Г. Инглиз ва ўзбек адабиётларидаги мифоним ва мифологизмларнинг қиёсий таҳлили.Филология масалалари. 2021/1. – 3б.
4. Қаранг:Narbayeva Gulmira Abdullayevna. Mifonimlar talqiniga doir “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” va “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”ning qiyosiy tahlili.Journal of unıversal science research. https://zenodo.org/records/8013145.
5. Нуруллаева С. Замонавий ўзбек шеъриятида мифологик образлар стилизацияси ва метафоризацияси. Фил.ф.б.ф.д. (PhD) дисс.автореферати.Самарқанд, -2022. -Б.13
6. Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. (Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Учинчи том). – Т.: Фан, 1988. – Б. 326.